



ILMIY FAOLIYATDA ANIQLIK HODISASINING AHAMIYATI

Muallif: Gulmatova Mahliyo Rasuljon qizi ¹

Affiliatsiya: NamDU tayanch doktranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15186970>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ilmiy faoliyatni tashkil etish va olib borishdamuhim hisoblangan aniqlik hodisasi haqida fikr yuritilgan. Aniqlik hodisasi tamoyillari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ilm, ilmiy faoliyat, ilmiy matn, aniqlik, IMRAD, maqola

Ilm – insonni boshqa mavjudotlardan ajartib turuvchi ne'matdir. Ilm orqali inson dunyoni anglashga, yaxshi hayot kechirishga, o'zining maqsadiga erishishi mumkin. Har qanday ilm o'rganish bilan hosil bo'ladi. Ayniqsa, bugungi axborotlashgan ilm-fan asrida ilm bilan shug'ullanuvchi izlanuvchilar o'z tadqiqotlarini ko'p hollarda yozma nutq bilan auditoriyaga yetkazadilar. Mazkur jarayonda tadqiqotchidan ilmiy matnni ifodalashda bir qancha lingvistik va ekstralingvistik ko'nikmalar talab etiladi. Bu esa nafaqat, til ilmining, balki barcha sohaga oid bo'lgan dolzarb muammodir.

Odatda noilmiy va ilmiy faoliyat turlari farqlanadi. Noilmiy faoliyat: kundalik-amaliy faoliyat, o'yin shaklidagi faoliyat, moddiy ishlab chiqarish va ma'naviy ishlab chiqarish kabilarda namoyon bo'lib, unda ilmiylik mezonlariga amal qilinmaydi [1:7]. Ushbu jumladan a'yon bo'ladiki, noilmiy faoliyat doirasi juda keng, ilmiy faoliyat fan bilan mashg'ul bo'lgandagina namoyon bo'ladi. Aslini olganda, kundalik hayotimizdagi har bir harakatimiz ilmga asoslanishi zarur. Ilm doirasi bizning tasavvurimizdan ham keng. Har bir harakat ilm asosida amalga oshirilsa, mukammal bo'ladi. Mazkur mukammallikni izlash, oson usullarini topish, anglash, tatbiq etishga harakat qilish ilmiy faoliyat hisoblanadi.

Aniqlik – ilmiy uslubda aniqlik sathi muhim ahamiyatga ega bo'lib, u so'zlarning bir ma'noda qo'llanilishida, terminlardan maqsadli foydalanishda ko'rinadi. Ilmiy matn – til birliklarining fan sohasida, ilmiy bayon jarayonida ishlatiladigan, ob'ektiv borliqni idrok etishda faqatgina dalil va faktlarga tayanadigan matn [2. 104]. Ilmiy stilda tabiat va ijtimoiy hayotdagi hodisalar aniq ta'riflanadi, tushuntiriladi. Bu stil alohida maxsus funksiyaga ega ekanligi bilan ajralib turadi [3,47]. Ilmiy stilga berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, aniqlik ushbu uslubning eng asosiy xususiyati hisoblanadi.

"Muayyan kontekst uchun yagona bo'lgan o'tkir va yorqin so'zni tanlay olish u qadar oson ish emas. Buning uchun har qanday so'zning lingvistik mohiyatini chuqur anglash, har bir so'zda potentsiya sifatida mavjud bo'lgan estetik imkoniyatlarni nozik va har taraflama his qilish benihoya zarurdir" [4, 52]. Bu jumla badiiy adabiyotga tegishli emas. Har qanday matn yozilishidan avval uning so'ziga e'tibor berish shart. Bunda



adresatdan so'zning aniq ma'nosini bilishi, kontekstga moslik yoki mos emasligini tahlil qila olishi kerak. Shuningdek, adresantning xususiyatlarini hisobga olgan holda yozma nutq(matn)ni shakllantirish zarur.

“So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: “So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz”[5,345]. Agar mazkur fikr amalga aylansa, dunyodagi o'quvchilarning hammasi o'z so'zlariga e'tibor berishgan, faqatgina foydali so'zlashga odatlanishgan bo'lardi. Haqiqatdan, so'zning qudrati kuchli. Bu to'g'risida A.Navoiy kabi ulug' ilm egalaridan merosga egamiz.

Ilmiy matnda aniqlik deyilganda, “Aniqlik hodisasi predmet ma'nosini anglatuvchi so'zlarning nominativ ma'noda qo'llanishida, monosemantik xarakterga ega bo'lishida, sinonimiyaning bir qadar chegaralanishida, terminlarning ilmiy nutqqa mos qo'llanishida ko'rinadi. Umuman, aniq fikrsiz bilimning bo'lishi mumkin emas” [6,17]. Darhaqiqat, ilm-fan aniqlikka, aniq fikrga, qisqa jumlagi, tushunilishning sodda bo'lishiga intiladi. Matnning tushunilishini qiyinlashtiruvchi jumalardan foydalanish (ilmiy terminlar nazarda tutilmagan, grammatik jihatdan noaniq tuzilgan gap turlari), keraksiz ta'kidlarni keltirish, matnga mos bo'lmagan grafik-rasmlardan foydalanish aniqlik sathiga to'g'ri kelmaydi.

Ayniqsa, bugungi global zamonda ilm bilan shug'llanuvchi inosonlar ham qulaylikka intilishmoqda. Axborotning oson qabul qilinishi uchun maqola yoki dissertatsiya tarkibida grafik-chizma bo'lishi zarur. Grafiklardan mohirona foydalanish ilmiy ma'lumot xotirada qolishi uchun samarali bo'ladi. Shuningdek, taqdimot ishlarida ham ilmiy mavzuning mazmunini yoritish uchun matndan foydalanish o'rniga ma'lumotni garfiklarda ifodalash maqsadga muvofiq.

Ilmiy matnning aniqligini oshirish uchun hozirda IMRAD (Introduction, methods, results, and disscussion) talabining joriy qilinishi katta ahamiyatli hodisa bo'ldi. Sababi, mazkur “qolip” ilmiy matnning qismlarini to'g'ri taqsimlashga o'rgatadi.

Ilmiy maqola matnini tayyorlash talablarida IMRAD formati juda oddiy mantiqqa asoslanganligi qayd etilgan: Maqolaning bo'limlari tabiiy savollarga javob berishi kerak.

IMRAD

1. Tadqiqot qaysi muammoga bag'ishlangan (Kirish)

2. Muammo qanday o'rganildi? (Metodlar bo'limi)

3. Asosiy ilmiy topilmalar yoki kashfiyotlar qanday?(Natijalar bo'limi)

4. Natijalar nimani anglatadi?(Munozara bo'limi)

1-rasm . IMRAD talabi

Ilmiy maqolada zarur qismlarning mukkamal tashkil qilinishi maqola muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bunday aniqlikka ega bo'lgan maqolani Scopus va Web of

Science jurnallarida chop qilish mumkin. Masalan, Blanka Frydrychova Klimova “Ilmiy proza uslubi va uning xususiyatlari” (Scientific prose style and its specifics) maqolasining tuzilishi va undagi ma’umotlar aniqlikda tasnif qilib chiqilgan. Ilmiy ma’lumot qachonki, miyada aniq ornashib, miyada fikrlash jarayonidan o’tsagina tasniflanadi, o’quvchilar uchun oson tushuntirish uchun harakat qilinadi.

3. Conclusion

Writers of good scientific articles might follow Orwell’s (1946) six rules for plain but true writing:

1. Never use a metaphor, simile, or other figure of speech which you are used to seeing in print.
2. Never use a long word where a short one will do.
3. If it is possible to cut a word out, always cut it out.
4. Never use the passive where you can use the active.
5. Never use a foreign phrase, a scientific word, or a jargon word if you can think of an everyday English equivalent.
6. Break any of these rules sooner than say anything outright barbarous.

2-rasm. Blanka Frydrychova Klimova “Ilmiy proza uslubi va uning xususiyatlari” maqolasining xulosa qismi

Ushbu xulosada ilmiy maqolaga oid bo’lgan 6 ta qoida matnni to’g’ri shakllantirish uchun bayon qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ilmiy matnni o’qitishda talabalarga quyidagi algoritmni amalga oshirish yaxshi yordam beradi:

1. Mavzu haqida dastlabki tushunchani berish;
2. Asosiy ilmiy manba bilan birgalikda internet saytlari yoki electron msnbs taqdim qilish shug’ullanish;
3. Qo’shimcha ilmiy manba tavsiya qilish;
4. Savollarga javob berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Shermuxamedova N. A. Ilmiy tadqiqot metodoiologiyasi /darslik/. Ikkinchi nashr. Toshkent: «Innovatsiya-Ziyo”, 2020,7-b.
2. Qurbonova M., Yo’ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. —B. 104.
3. Xalilova M. O’zbek stilistikasi asoslari. – Farg’ona, 2009. – B. 47.
4. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент – ФАН, 1981.52-b.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 345-b.
6. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. Тошкент: Фан. 1984, 17-б.